

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI PULLAR MUOMALASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shavkatova Madinabonu

Bank moliya akademiyasi MBA Banking fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Bugun raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlariga jadal kirib bormoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi, turli to'lov xizmatlarini etkazib beruvchilar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi va kuchayishi, chakana to'lovlar bo'yicha tranzaksion xarajatlar qisqartirilishini, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirishda moliyaviy institutlarning vositachiligini talab etmaydigan innovatsion va jozibador to'lov vositalarining joriy qilinishini taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi. Ushbu qonun asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020 yil 29 aprelda 3231-son bilan davlat ro'yhatidan o'tkazildi. Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi. Unda elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar, shu jumladan, "ayirboshlash operatsiyasi", "bir va ko'p emitentli elektron pullar tizimi", "oldindan to'langan karta", "elektron pullar tizimining agenti", "elektron hamyon" va sohaga oid boshqa terminlarga batafsil tushuntirishlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Markaziy bank, raqamli aktiv, kriptovalyuta, virtual valyuta, blokcheyn, mayning, tarqatilgan ro'yhatga olish kitobi, iqtisodiy, huquqiy, qiymat, axborot resursi.*

Raqamli valyuta nima?

Raqamli valyuta - tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan raqamli pullar uchun umumiy atama. Pullar faqat raqamli shaklda mavjud va naqd pul bilan bog'liq emas, bu esa o'z navbatida raqamli valyuta ham elektron pul emasligini anglatadi. Raqamli valyutalar nomoddiydir va ularni muayyan tarmoqlarga ulangan kompyuter yoki elektron hamyon yordamida boshqarish mumkin xolos. Barcha kriptovalyutalar raqamli valyutalardir, ammo barcha raqamli valyutalar kriptovalyutalar emas. Elektron oltin va pulli o'yinlarni o'z ichiga olgan boshqa raqamli valyutalar mavjud.

Hukumatlar raqamli valyutalarni joriy qilishi uchun sabablar.

Raqamli valyutalarni o'rganish uchun juda ko'p sabablar bor va turli mamlakatlarning raqamli valyutani chiqarish motivatsiyasi ularning iqtisodiy holatiga bog'liq. Ba'zi bir umumiy motivatsiyalar quyidagilardir:

- bankda ishlamaydigan va to'liq bankka ega bo'lmagan aholi uchun puldan oson va xavfsizroq foydalanishni ta'minlash orqali moliyaviy inklyuziyani rag'batlantirish;
- ichki to'lovlar bozorida raqobat va barqarorlikni joriy qilish, bu pulga arzonroq va yaxshiroq kirishni ta'minlash uchun rag'batlantirishni talab qilishi mumkin;
- to'lovlar samaradorligini oshirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish;
- dasturlashtiriladigan pullarni yaratish va pul oqimlarining shaffofligini oshirish;
- pul-kredit va fiskal siyosatning uzluksiz va qulay oqimini ta'minlash.

Virtual valyuta nima?

Virtual valyuta - bu faqat raqamli formatda mavjud bo'lgan tartibga solinmagan raqamli valyuta. Pul qiymatining ushbu elektron ko'rinishi to'lov vositasi sifatida ishlatilishi mumkin va uni amalga oshirish uchun sizga hamyon, mobil yoki veb-ilova kerak. Har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs virtual valyutani elektron shaklda o'tkazishi, saqlashi va savdosi bilan shug'ullanishi mumkin. Biroq, virtual valyutalar qiymat yig'indisi, hisob birligi yoki almashinuvni hisoblash uchun ishlatiladigan qiymat sifatida ishlatilmaydi. Virtual valyutaning rolini tushunish muhimdir. Ushbu turdagi valyutani belgilangan valyutaga almashtirib bo'lmaydi va markaziy yoki boshqa bank organi tomonidan chiqarilmaydi. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunda virtual valyuta tartibga solinmagan valyutadir, ammo bu vaqt masalasidir. Markaziy banklar va tartibga soluvchi organlar virtual valyutalarning yangi, tartibga solinadigan va rasman chiqarilgan turlarini (masalan, kriptovalyutalar) yaratish ustida faol ishlamoqda.

Kriptovalyuta nima?

Kriptovalyuta tartibga solinmagan virtual valyuta bo'lib, kriptografik usullar bilan shifrlash orqali qalbakilashtirish va buzishdan himoyalangan. Kriptovalyuta kursi faqat bozordagi talab va taklifga bog'liq. Kriptovalyuta ham raqamli valyutaning bir turi, ammo u elektron pul turi emas, chunki u hech qanday bank yoki elektron pul moliya instituti (EMI) tomonidan tartibga solinmagan yoki ishlab chiqarilmagan.

Markaziy bank rahbari Mamarizo Nurmuratov regulyator raqamli valyutani ishlab chiqishi va sinovdan o'tkazishi haqida ma'lum qilgan edi. Bu boradagi ishlar bosqichma-bosqich, ochiq bank faoliyati bo'yicha jahon tajribasini hisobga olgan holda amalga oshirilib, dastlabki ilmiy izlanishlarga xalqaro ekspertlar jalb etiladi.

Markaziy bank mutaxassislari bilan birgalikda uning qanday valyuta ekanligini, kriptovalyuta va naqd pulsiz mablag'lardan nimasi bilan farq qilishini va qachon chiqarilishi kutilayotganini aniqladi.

Markaziy banklarning raqamli valyutalari (Central Bank Digital Currency, CBDC) muqobil yoki qo'shimcha to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan virtual milliy puldir. Ko'pincha, ularning qiymati milliy valyutaga bog'langan, lekin qimmatbaho metallar (E-gold, WebMoney Gold — WMG), kriptovalyutalar kabi suzuvchi kurs bilan bog'lanish ham mumkin. Raqamli valyutaning eng ko'p tilga olinadigan turlaridan biri bu raqamli yuandir. Xitoyda raqamli yuanni joriy etish bo'yicha pilot loyiha doirasida 2021-yil iyun oyida oltita shaharda tovar va xizmatlar uchun to'lov bo'yicha 1,32 mln tranzaksiya amalga oshirildi, jismoniy shaxslar uchun 20 mln dan ortiq va yuridik shaxslar uchun umumiy tranzaksiya qiymati 34,5 mlrd yuanga teng 3,5 mln hamyon ochildi.

O'zbekiston Markaziy bankining raqamli valyutasi qog'oz va naqd bo'lmagan summalarga muqobil bo'lgan yangi pul shaklidir. Bu elektron shaklda chiqarilgan va maxsus platformada tarqatiladigan qonuniy to'lov vositasidir. Butun dunyodagi markaziy banklar raqamli valyutalarning bir nechta modellaridan foydalanadilar — aksariyat hollarda bu chakana va ulgurji bo'ladi. Birinchisi jismoniy va yuridik shaxslarni o'z ichiga olgan keng doiradagi foydalanuvchilar uchun mavjud. U oxirgi foydalanuvchilar tomonidan hisob-kitoblarda naqd pul o'rnini bosuvchi vosita sifatida foydalanishi mumkin. Ulgurji model cheklangan miqdordagi foydalanuvchilar, birinchi navbatda, banklar va moliya bozorining boshqa ishtirokchilariga mo'ljallanganligi nazarda tutiladi. Model asosan banklararo hisob-kitoblarda muqobil usul sifatida qo'llaniladi. Aslida, ulgurji raqamli valyutalarning analoglari Markaziy banklardagi vakillik hisoblari va bank depozitlaridir.

Raqamli valyuta hali ham murakkab va to'liq tushunilmagan mahsulotdir, deydi Markaziy bank mutaxassislari. Regulyator raqamli valyutani chiqarishning pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik va to'lov tizimlariga ta'sirini diqqat bilan o'rganmoqchi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik masalalariga, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi¹.

"Milliy raqamli valyutani ishlab chiqishda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, muhim ahamiyatga ega. Markaziy banklar o'z raqamli valyutalarining moliyaviy vositachilariga ta'sirini minimallashtirishga intilmoqda, shunda tijorat banklari moliyaviy tizimning "chetiga qolib ketmaydi" va iqtisodiyot o'z ishini davom ettiradi"

Xulosa

Regulyator ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblar uchun yetarli miqdorda to'lov tizimlari va elektron pul tizimlari, shuningdek, bank kartalarini qabul qiluvchi keng terminal infratuzilmasi mavjud.

¹ Xalqaro valyuta fondi boshqaruvi direktori Kristalina Georgiyevnaning intervyusidan.

Shuning uchun Markaziy bank mamlakatda raqamli valyutani joriy etishga shoshilmayapti. Birinchidan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan elektron pul tizimlari muomalasida to'plangan tajribani inobatga olgan holda ushbu amaliyotning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini o'rganish zarur, deya ta'kidladi Markaziy bank.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Андрюшин, С.А. Биткойн, блокчейн, файл-деньги и особенности эволюции денежного механизма / С.А. Андрюшин, В.К. Бурлачков // Финансы и кредит. –2017. – Т. 23. – № 31. – С. 1850-1861. [5, 19, 24, 25, 27].
2. Андрюшин, С.А. Смена парадигмы денежной системы: от централизации к децентрализации / С.А. Андрюшин // Актуальные проблемы экономики и права. – 2018. – Т. 12. – № 2. – С. 204-220. [6].
3. Анохин, Н.В. Криптовалюта как инструмент финансового рынка / Н.В. Анохин, А.И. Шмырева // Идеи и идеалы. – 2018. – Т. 2. – № 3 (37). – С. 39-49. [7].

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <file:///C:/Users/uzb10info/Downloads/tijorat-banklarida-raqamli-aktivlar-muomalasini-tashkil-qilishning-o-ziga-xos-xususiyatlari.pdf>
2. <https://www.spot.uz/oz/2022/04/29/digital-currency/>
3. <https://infocom.uz/raqamli-valyuta/>